

JADID NAMOYANDALARI ASARLARIDA PEDAGOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Xudoyorova Dinora Farhod qizi

O'zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Turkiston ma'rifatparvarlarining pedagogik tafakkurni shakllantirish borasidagi g'oyalari, ta'lim -tarbiya masalalari orqali jamiyat rivojiga qo'shgan hissasi haqida qisqacha ma'lumot keltirib, ma'rifatparvarlarning o'z asarlarida ilgari surgan pedagogik tafakkurni rivojlantirish zaruriyati va ularning fikrlarining hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida ham dolzarbligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ma'rifatparvarlik harakati, jadid, ta'lim, tarbiya, maktab, pedagogik tafakkur, jamiyat, oila, qadriyat, axloq, globalizatsiya, Fitrat, Avloniy, Behbudiy.

Ma'rifatparvarlar ta'lim va tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Aynan ta'lim- tarbiya jamiyatni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida ko'rsatilgan va pedagogik tafakkurni shakllantirish orqali yosh avlodni ma'naviy va madaniy jihatdan boyitishga intilishgan. Ularning fikriga ko'ra, zamonaviy, bilimli va ma'rifatli yosh avlodgina millatni kelajakka olib chiqishi mumkin. Shu sababli, ma'rifatparvarlarning asarlarida ilgari surilgan pedagogik g'oyalar bugungi kunda ham ta'lim tizimida katta ahamiyat kasb etadi. Tarbiya borasida yosh avlodga axloqiy fazilatlarni o'rgatish, ularni qadriyatlar asosida to'g'ri tarbiyalash muhim rol o'ynaydi. Globalizatsiya davrida milliy qadriyatlarni saqlab qolish, yoshlarni hurmat, mehr-oqibat, insoniylik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash zarur. Bu ular o'z ildizlariga sodiq, madaniyatli va yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

XIX-asr oxiri va **XX**-asr boshida Turkiston hududida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoiti turli o'zgarishlar va murakkabliklarga boy bo'lgan. Mahalliy aholining turmush tarzi asosan an'anaviy islomiy me'yorlarga asoslangan holda edi. Ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va madaniyat ishlarni diniy ulamolar nazorat qilishgan. Keyinchalik chor hukumatining ta'siri ostida bu ijtimoiy tuzilma o'zgarib, an'anaviy hayot tarziga yangi g'oyalar kirib keladi. Shunday siyosiy jarayonlar vaqtida Turkistonda ma'rifatparvarlik va jadidchilik harakati rivojlana boshladi. Ushbu harakatning yirik namoyandalari Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ko'plab ma'rifatparvar ziyolilar edi. Jadidchilik harakatining asosiy maqsadlaridan biri xalqni, yosh avlodni savodli qilish va ularning turmush tarzini farovonlashtirishdan iborat edi. Ya'ni ta'lim-tarbiya va madaniyat orqali xalqni uyg'otish, savodxonlik darajasini oshirish va milliy o'zlikni tiklash maqsadida qattiq kurashdilar. Yangi usul maktablar ochilib, yoshlarga zamonaviy fanlar va

texnik bilimlar o'rgatildi. Jadidlar harakati o'lkada milliy ongning kuchayishiga, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarga turtki bo'ldi. Ular Turkistonning mustaqilligi yo'lida juda ko'p ma'naviy harakatlar olib bordilar. Bu kabi xalqni savodli qilish yo'lidagi jonkuyarliklar oson kechmadi. Shunday bo'lsada jadidlar o'z maqsadlari yo'lida ustuvor turib, xalqni "xaflat uyqusidan" uyg'otish yo'lida o'zlarining asarlari, maqolalari orqali va xalq bilan uchrashganda murojaatlari bilan fidoiylilik ko'rsatdilar.

A.Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga egadir. U asarida axloq va tarbiya masalalarini yoritib, yosh avlodni tarbiyalashda axloqiy qadriyatlarning muhimligini ta'kidlaydi. Bola tarbiyasida muallif u yashab turgan sharoit, muhit, kishilarning roli katta ekanligini ko'rsatadi va bu sohada oila, maktab sharoitini ham ahamiyatli deb ta'kidlaydi. Tarbiya bolaning axloqiga, xulq-atvoriga kuchli ta'sir etishini e'tirof qiladi va ota-onalarni o'z bolalarini tarbiya qilishga chaqiradi. Uning fikricha, yaxshi tarbiya insonni faqat ilmiy jihatdan emas, balki axloqiy jihatdan ham rivojlantiradi. Shu sababli, Avloniy asarida o'qituvchi va ota-onalarning o'z o'rnida bolalarga axloqiy o'gitlar berishlari zarurligini ta'kidlaydi. U insonning to'laqonli tarbiyasi uchun zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari va axloqiy qadriyatlarni o'z asarida keng yoritilgan.

Yana bir jadidchilik vakilining yirik namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiyning "Maktab va madrasalar islohoti haqida" asari Turkiston ma'rifatparvarlik yo'lida harakatining ta'limiy vositalaridan biri hisoblanadi. Behbudi aynan shu asari orqali o'lkada ta'lim tizimini yaxshilash, zamonaviy ilm-fan va texnika bilimlarini o'rgatish uchun maktab va madrasalarni isloh qilish zarurligini ta'kidlaydi. Asarning asosiy mazmuni va g'oyasi zamonaviy ta'limning zarurligi, islom va ilm-fanni uyg'unlashtirish, o'qituvchi va o'quvchilarni yangi usulda tayyorlash, o'quv dasturini yangilash, millatning taraqqiyoti yo'lida ta'lim tizimini takomillashtirish masalalaridan iborat. Behbudi ta'lim-tarbiya borasida eski usuldagi madrasalarning kamchiliklarini ko'rsatib, ularning zamonaviy talab va ehtiyojlarga javob bermasligi borasida tanqidiy munosabatini keltirib, millat farzandlariga yangi zamonaviy fanlarni jamiyat talabi asosida o'rgatishlik davri yetib kelganini ta'kidlaydi.

"Jamiyat qanday ochilur", "Muallimlarimiz haq" maqolalarida Munavvar Qori Abdurashidxonov maktabni maorif va madaniyat debochasi deb keltirilgan. Muallifning fikricha o'qituvchilar jamiyatning tayanichi bo'lib, yosh avlodning kelajagini shakllantiruvchi shaxslar sifatida katta mas'uliyatga egadirlar. Maktab esa xalq farzandlarini ro'shnoiylikka yetaklovchi maskan sifatida ma'rifat uchog'idir mazmunidagi fikrlarni keltirilgan. O'qituvchilarning axloqiy fazilatlarini borasida ham alohida to'xtalib, muallim o'quvchilari uchun namuna bo'lishi, ular o'zlarini doimo intizomli va adolatli tutishlari zarurligini ta'kidlaydi. U o'qituvchilarga shogirdlarga nisbatan sadoqat ila xamxorlik qilish, ularni hurmat qilish, ularga mehribon bo'lish, o'quvchilarga yaxshi o'rnak bo'lish kerakligini ta'kidlaydi. Munavvar Qori

o'qituvchilarning kasbiy va axloqiy sifatlariga alohida e'tibor qaratar ekan "Yoshlarning tarbiyasi" asarida oila va ta'limning hamkorligi, oilaning tarbiyadagi muhim roli, ota-onalar bilan o'qituvchilar o'rtasida yaqin hamkorlik bo'lishini, o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, ularni halollik, odoblilik, mas'uliyatlilik kabi fazilatlar bilan boyitish zarurligini ta'kidlaydi. Munavvar Qori Abdurashidxonov fikrlari hali hamon o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Uning qarashlari va g'oyalari bugungi kunda milliy pedagogik tizimimizda o'z aksini topgan.

Fitratnig "Oila" asari o'z davrining va bugungi kun insoniyatining ma'naviy dunyosini boyitishda katta rol o'ynaydi. Har qanday jamiyatda ham oila ijtimoiy taraqqiyot manbai va axloqiy tarbiya o'chog'i bo'lib kelgan. Shuning uchun ham insoniyat ulug'lari oilani nafaqat jamiyat, balki davlatchilik asoslarining qurilishida ham ilk maktab deb hisoblaganlar. Bu asarda pedagogik tafakkur orqali oila muhitida farzandlarni tarbiyalash masalalari ko'rib chiqilgan. "Ma'rifat va millat" asarida esa u ta'limning millat taraqqiyotidagi o'rnini ta'kidlab, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik yondashuvlar kerakligini bayon qiladi.

Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asari pedagogik asar bo'lmasa-da, unda o'sha davr ta'lim tizimi va o'qituvchilarning faoliyati tasvirlangan. Asardagi obrazlar va voqealar orqali pedagogik tafakkur hamda ta'lim-tarbiyaning yosh avlod uchun nechog'li muhim ekani haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

O'qituvchilar nafaqat bilim beruvchilar, balki tarbiyachilar ekanini tushunish lozim. Ularning o'z kasbiga sadoqatli bo'lishlari, o'quvchilarga namunali tarbiya berishlari, milliy qadriyatlarni saqlab qolishlari va zamonaviy bilimlarni yetkazishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy – "Turkiy guliston yoxud axloq"
2. Mahmudxo'ja Behbudiy – "Maktab va madrasalar islohoti haqida"
3. Munavvar Qori Abdurashidxonov – "Muallimlarimizga" va "Yoshlarning tarbiyasi"
4. Abdurauf Fitrat – "Oila" va "Ma'rifat va millat"
5. Abdulla Qodiriy – "O'tgan kunlar"
6. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T."Sano standart"nashiriyoti. 2017.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)